

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:  
№ BD-5120400  
“” 2019 yil



Samarqand davlat universiteti  
rektori: J. Xalmuradov  
201 yil

**"O'RTA OSIYO ORNAMENTI VA TASVIRIY SAN'ATI"**

**FANINING  
O ' Q U V D A S T U R I**

Bilim sohasi: 100 000 -Gumanitar fanlar va san'at

Ta'lif sohasi: 120 000 -Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 5120400 - Arxeologiya

**SAMARQAND – 2019**

Fan dasturi samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko'rib  
chiqilgan va tavsiya qilingan (201\_ yil "—" dagi "—" -sonli  
bayonnomasi).



dots.D.M.Djurakulova

Fan dasturi samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Aslanov A.P.- SamDU, «Arxeologiya» kafedrasi o'qituvchisi

A.A.Nazarov - SamDU, «Arxeologiya» kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Ergashev.B.E- SamDU, «Tarixshunoslik va manbashunoslik» kafedrasi  
mudiri.

Djurakulov M.Dj.-SamDU, «Arxeologiya» kafedrasi t.f.d, professor.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining  
201\_ yil "—" dagi "—" -son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv uslubiy kengash raisi:

prof.A.S.Soleyev

## Kirish

Ushbu dastur Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi fanining rivojlanishi. Fanning maqsadi, vazifalari va predmeti. O'rta Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi fanining tadqiqot ob'ektlari, Ornament va tasviriy san'atning paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Tasviriy san'atning insoniyat g'oyaviy-madaniy va xo'jalik hayotini o'rganishdagi ahamiyati, Markaziy Osiyo tasviriy san'ati ob'ektlari, tasviriy san'atning shakllanishi, neolit, eneolit, bronza, davri ornamentlari. Markaziy Osiyo tosh asri tasviriy san'ati, ilk temir davrida tasviriy san'at o'ziga xos xususiyatlari, Markaziy Osiyoning ahamoniylar davriga oid tasviriy san'ati namunalari, Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridagi o'zgarishlar va uning tasviriy san'at rivojiga ta'siri. Jangu jadallar, bazmlar, tantanalar va marosimlar aks ettirilgan ornament va tasvirlar. Afrosiyob, Varaxsha, Bolaliktepa, Panjekent, va boshqa me'moriy obidalarda aks etgan ornament va tasvirlar. Ibtidoiy diniy e'tiqodlar bilan bog'lik bo'lgan ornament va tasviriy san'at Antik va o'rta asrlar davri me'morchiligi va san'ati, xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlarida aks etgan ornament va tasviriy san'at. Markaziy Osiyo ning ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar va uning tasviriy san'at rivojiga ta'siri, rivojlangan o'rta asrlar davri tasviriy san'ati, me'moriy obidalari va ulardagi tasvirlar kabi masalalrni o'rganadi.

## O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi bilan talabalarni tanishtirish, tarixga nisbatan xolisona baho berish, ularda ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi va uning revojlanish bosqichlarini o'rgatishdan iborat.

## Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yiladigan talablar

“Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'ati tarixi kursining maqsad va vazifalari, ornament va tasviriy san'atning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini, ornament va tasviriy san'atning o'ziga xos hususiyatlarini tahlil va tadqiq etishni, ulardan foydalanishni *bilishi* kerak;
- talaba ornament va tasviriy san'at tarixiga oid ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Internet ma'lumotlarini, moddiy va ma'naviy manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak;

## **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi**

“Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san’ati tarixi” fani ixtisoslik fani hisoblanib, 7- semestrlarda o‘qitiladi. Dasturni amalga oshirish, o‘quv rejasida rejalahtirilgan O‘rta Osiyo arxeologiyasi, Markaziy Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar shaharlari, Markaziy Osiyo hunarmandchiligi tarixi fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida o‘zbek xalqi va uning davlatchiligini tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy asoslarini shakllantirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish, davlatchiligi haqqoniy taxmini tarixiy manbalar asosida o‘rganish vazifasi belgilangan. Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san’ati tarixiga oid ma’lumotlar muhim manba hisoblanadi. Ularni tadqiq etish, o‘rganish orqali ko‘plab ma’lumotlarni qo‘lga kirtishimiz mumkin.

## **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san’ati tarixi fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi.

Dasturda berilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi. SHuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o‘zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg‘ulotlari zamonaviy pedagogik-texnologiyalarning “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Nima uchun”, “Assesment”, “Blits o‘yin”, “Insert”, “SWOT –tahlil” metodi va boshqa usullardan foydalanib darslar olib boriladi.

## **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

#### **Ornament va tasviriy san’atning paydo bo‘lish sabablari. Tasviriy san’atning tur va janrlari.**

Ornament va tasviriy san’at tushunchasi, san’atning paydo bo‘lishi. Ornament va tasviriy san’atning taraqqiyot bosqichlari. San’at turlari ichida ornament va tasviriy san’atning nisbatan ko‘pchilik xududlarda keng tarqalganligining tarixiy sabablari. Geometrik naqsh elementlarining va buyumlarning ramziy ma’nolari, ranglarning ramziy ma’nolari.

Tasviriy san’atning taraqqiyoti, uning nazariy asoslari, shakllanishi jarayoni, tasviriy san’atning ibtidoiy jamoa davridai boshlab nihoyaggda uzoq yo‘lni bosib o’tishi. Tasviriy san’atning turlari, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika va boshqalar. Rangtasvir san’atning mazmuni, xarakteri va o‘ziga xos hususiyatlari. Haykaltaroshlik san’atning qadimgi namunalari, xalqlarning tarixini, e’tiqodlarini, turmush tarzini o‘zida aks ettirishi. Grafika san’atning keng tarqalishi, uning turlari.

#### **Markaziy Osiyonining mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlari ornamenti va tasviriy san’ati. Ornament turlari**

Mezolit davriga kelib Markaziy Osiyoda segment, trapetsiya va uch burchak shakldagi mayda qurollar – mikrolitlarning kashf etilishi. Qoyatosh suratlari va tasviriy san’atning paydo bo‘lishi, urib-o‘yib, ishqalash, chizish usuli bilan tasvirlarning ishlanishi. Zarautsoy, Sarmishsoy, Teraklisoy CHodaksoy va boshqalar. Neolit davriga kelib xo‘jalikning rivojlanishi, xo‘jalik buyumlarida uchburchak, geometrik, to‘lqinsimon naqshlarning paydo bo‘lishi. Eneolit davrida sopol idishlarning rangdor bo‘lishi, naqshlar ichida ko‘proq egri va uchburchak geometrik tasvirlarning mavjudligi. Bronza davri naqshlarining jamiyat ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishdagi ahamiyati. Anov I II. Nomozgoh I.II. III. Sarazm I va boshqalar. Nomozgoh IV davri sopol idishlari rangli bo‘lishi bilan birga, naqshlar ichida o‘simliklar va hayvonlar tasvirlarining tarqalishi. Geometrik ko‘rinishdagi ornamentlar, hayvonot dunyosini ifodalovchi ornament va tasvirlar, tabiat ko‘rinishini ifodalovchi ornament va tasvirlar. Epigrafik ornamentlar.

#### **Ibtidoiy diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan ornament va tasvirlar**

Dualizm insonning eng ilk diniy e’tiqodlaridan biri sifatida. Dualizm bilan bog‘liq bo‘lgan ornament va tasvirlar, dualizm ta’limotida ranglarning muhimligi. Animizm bilan bog‘liq bo‘lgan ornament va tasvirlar. Ossuariylarga tushirilgan tasvir va naqshlar, ularning ifodasi. Fetishizm va u bilan bog‘liq bo‘lgan ornament va tasvirlar. Borliq yaratilishining totem ramzlari. Dunyo yaratilishi bilan bog‘liq totem e’tiqodlarning o‘lkamizda keng tarqalishi. Qadimda Markaziy Osiyoda sher grifon va burgutgrifon ramzlarining tarqalishi. Ilohiylashtirilgan hukmronlik totemlarida aks etgan ornamentlar. Hayot daraxti bilan bog‘liq bo‘lgan ramzlarda

ornament ko‘rinishining ifodalanishi. Gliptika san’ati. Bronza davri Sopolli, Jarqo‘ton, Margun muxrlari.

### **Sopol, yog‘och, metall, shisha va tosh buyumlarida aks etgan ornament va tasvirlar**

Kulolchilikning paydo bo‘lishi. Qadimgi davr sopol buyumlarida aks etgan ornament va tasvirlar. Antik va o‘rta asrlarda ishlangan sapol idishlariga tushirilgan tasvirlar. Antik davri idishlarining shakli va sayqali. Ilk o‘rta asrlar sopol naqshlari. Islom davri keramikasining turlari va naqshlar texnologiyasi. Mavr, Buxoro, Qarshi, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent kulolchiligi. Sirlangan idishlarda aks etgan tasvir va ornamentlar. Markaziy Osiyoda qadimdan yog‘och o‘ymakorligining rivojlanshi. YOg‘ochlarda aks etgan naqshlar.

Markaziy Osiyo hududida metall buyumlarning kadimdan keng tarqalishi va ularga bezak berilishi. Metall buyumlarga ornament va tasvirlarning tushirilishi. Misdan ishlangan qozonlar va boshqa buyumlarning bezatilishi. Markaziy Osiyo hududida shisha buyumlarda qo‘llanilgan ornament va tasvirlar. Toshdan ishlangan buyumlar va ularning xo‘jalikda ishlatilishi. Tosh buyumlarda aks etgan ornament va tasvirlar.

### **Xaykaltaroshlik va miniatyura san’ati**

Eneolit va Bronza davri skulpturasi. Skif tasviriy san’ati hususiyatlari. Elenizm davri YUnion-Baqtriya va Parfiya xaykallari va koroplastika san’atining hususiyatlari. Realistik tasvirlarning an’anasi taraqqiyoti. Saroy va ibodatxonalar skulpturasi. Ma’budalar. Xolchayon, Tuproqqal’a, Erqo‘rg‘on, Qoratepa, Dalvarzin, Fayoztepa, Marv skulpturasi.

Terrakota xaykalchalarining yunon, YAqin SHarq, skif va Kushon davri tasvirlarining uslubiyati. Ilk o‘rta asr barelefлari. Panjikent, Varaxsha, Bunjiket, Quva xaykallari. Islom davrida xaykaltaroshlikning inqirozga uchrashi. Islom davri kitobot va kitob miniatyurasi san’ati. Temuriylar rennesansi tushunchasi. Kamoliddin Behzod, Samarqand va Xirot miniatyura maktabi. Xattotlik va naqqoshlikning rivoji. Sulton Ali miniatyuralar. SHayboniylar davri Buxoro naqqoshlik maktabi. So‘nggi o‘rta asrlarda miniatyura san’atining so‘nib borishi.

### **Markaziy Osiyoning antik davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlari va devoriy naqsh san’ati namunalarining o‘rganilishi**

Markaziy Osiyoning antik davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlari. Mahalliy, ellin, sak-yuechji, gandxar (hind) madaniyati an’analarining qaror topishi va ularning o‘zaro ta’siri. Lokal hududlarda antik davri me’morchiligining shakllanishi va taraqqiyoti. Eski Niso (SHimoliy Parfiya) yodgorliklarida devoriy rang-tasvirlarning o‘rganilishi. Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa (SHimoliy Baqtriya) va Dilberjin (Janubiy Baqtriya) rang-tasvir namunalarining o‘rganilishi. So‘nggi antik davri Marv devoriy rang-tasvirlarining o‘rganilishi. Antik davri Xorazm devoriy rang-tasvir san’ati namunalari (Tuproqqal’a, Ko‘hna Uyaz).

## **Markaziy Osiyoning antik davri devoriy naqsh san'ati kompozitsiyasi va tematikasi**

Ellinizm davrida Kolonna, pilyastralari, kapitel uslublarining qo'llanishi. Ayrитом ibodatxonasi. Dalvarzintepa, Ajinatepa, Qoratepa, Nisa yodgorliklari. Xorazm me'morchiligining monumental naqshlari. Ellin madaniyatini an'analarining ta'siri. SHimoliy Baqtriyada Dalvarzintepa va Xolchayon devoriy naqshlari. Ularning kompozitsiyasida ellin, mahalliy va ko'chmanchilarga xos alomatlarning namoyon bo'lishi. Dilberjin (Janubiy Baqtriy) devoriy rang-tasvir namunalarining o'ziga hos xususiyatlari. Kushon davri Gandhara madaniyatining ta'siri. SHimoliy Baqtriyada buddizm dinining tarqalishi. Buddaviylik san'ati. Qoratepa ibodatxonasi va Fayoztepa monastiri hamda ularning budda dini mafkurasi bilan boyitilgan devoriy rang tasvir namunalari. So'nggi antik davri Marv devoriy rang-tasvirlari va ular kompozitsiyasi. Antik davri Xorazm devoriy rang-tasvir san'ati xususiyatlari. Tuproqqa'l'a, Ko'hna Uyaz yodgorliklarida aniqlangan devoriy naqsh san'ati namunalari va ularning mazmuni. Antik davri saroylari va ibodatxonalarining monumental san'ati.

### **Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri devoriy naqsh san'ati**

Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar. Ilk o'rta asrlar me'morchiligining o'ziga xos xususiyatlari. Saroylar, qasrlar. Afrosiyob devoriy naqsh san'ati. Dunyoviy mazmundagi rang-tasvirlar. Elchilik munosabatlarining tasvirlanishi. Panjikent tasvirlari va ularning mazmun-mohiyati. Panjikent tasvirlarining dunyoviy xarakteri. Varaxsha devoriy rang-tasvirlari. Varaxsha tasvirlaridagi diniylik va afsonaviylik. Bolaliktepa devoriy rang-tasvirlari. Bazm jarayonining tasvirlanishi. Tavka devoriy suratlari. Ov manzaralari. Qal'ai-Qahqaha (Bunjikat) tasvirlari. Bunjikat tasvirlari realizm va afsonaviylikning mujassamlanishi. Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi va uning devoriy naqsh san'atiga salbiy ta'siri. Ilk o'rta asrda devoriy naqsh san'atining taraqqiyoti. Islom davri me'morchiligidagi islimiy va geometrik naqsh san'atining rivojlanishi. Bezak kompazitsiyalarida xo'shxat yozuvlarining qo'llanishi (kufiy, susl, nasx), me'morchilikda yozuv (hattolik) san'atining paydo bo'lishi.

### **Markaziy Osiyoninng IX- XIII asrlar me'morchilik san'ati.**

Arablarning o'lkamizni bosib olishi va uning me'morchilik tarraqqiyotiga ta'siri. Mahalliy me'morchilik bilan arab me'morchiligining uyg'unlashuvi. Me'morchilikda yangi naqshlarning paydo bo'lishi. Me'morchilik qurilish va uslublarida rivojlanishning ko'zga tashlanishi. Pishgan g'ishtlarning muomalaga kirib kelishi, gumbaz va arklarga shakl berishda shuningdek maqbara, masjid va boshqa binolarning tashqi devorlarini bezashda foydalanishi. Me'morchilikda peshtoqli uslubning rivojlanishi va taraqqiyoti. Me'morchilik san'atida rangli g'ishtlarning kirib kelishi, me'moriy yodgorliklarni bezashda ularning hal qiluvchi o'ringa ko'tarilishi. Me'morchilik san'atida moloika va

mozaikaning qo'llanilishi. Me'moriy yodgorliklarning ustini yopishda o'qsimon va boshqa gumbaz turlarining asosiy o'ringa qo'tarilishi. IX-XIII asrlar davri me'moriy obidalari va ularning devoriy naqsh turlari. Islimi, girih, farangi, abr, nilufar naqsh turlarining qo'llanishi. Devoriy naqsh san'atining Vatanimiz tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

### **Markaziy Osiyoning XIV -XIX asrlar me'morchiligidagi qo'llanilgan ornament va tasviriy san'at**

XIV asrlarda yaratilgan me'moriy obidalarda tasvirlangan ornamentlar. Me'morchilikda tasviriy san'at o'rmini o'simliksimon va geometrik naqshlarning egallashi. Temuriylar va SHayboniyalar davri me'moriy obidalarida qo'llanilgan ornamentlar. XIV-XV asrlar me'moriy yodgorliklarda qo'llanilgan naqshlar va yangiliklar. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan girihiy va islimiya naqsh turlarining asosiy o'ringa ko'tarilishi. XIV-XV asr me'moriy yodgorliklarida koshinkor naqshlarning paydo bo'lishi. Qo'qon, Xiva, Buxoro, Marv me'moriy yodgorliklarda naqshlar va tasvirlarning nafisligi va o'ziga xos xususiyatlari. Xalq amaliy bezak san'atida naqshlarning taraqqiy etishi. XIX asr oxiri XX asr boshlari Me'morchiligidagi Evropa san'atining kirib kelishi va uning ta'siri.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Markaziy Osiyo ornamenti va tasviriy san'at tarixi" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

### **"O`RTA OSIYO ORNAMENTI" FANI BO`YICHA SEMINAR MASHG'ULOTLARIIGA MAVZULAR TAQSIMOTI**

<b>Mavzular</b>
<b>Nº</b>
1. Ornamentning taraqqiyot bosqichlari
2. Ornament paydo bo'lish sabablari.
3. Markaziy Osiyo ning mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlari ornamenti . Ornament turlari.
4. Ibtidoiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganlar
5. Gliptika san'ati. Bronza davri Sopolli, Jarqo'ton, Margun muxrlari
6. Sopol, yog'och, metall, shisha va tosh buyumlarida aks etgan ornamentlar

7. Islom davri keramikasining turlari va naqshlar texnologiyasi
8. Miniatyura san'ati
9. Markaziy Osiyoning antik davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlari va devoriy naqsh san'ati namunalarining o'r ganilishi
10. Markaziy Osiyoning antik davri devoriy naqsh san'ati kompozitsiyasi va tematikasi
11. Markaziy Osiyoning ilk o'rta asrlar davri devoriy naqsh san'atida ornament
12. Makaziy Osiyoninng IX- XIII asrlar me'morchilik san'ati.
13. Markaziy Osiyoning XIV -XIX asrlar me'morchiligidagi qo'llanilgan ornament
14. Markaziy Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar davri me'moriy yodgorliklarida aks etgan ornament
15. Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi va uning devoriy naqsh san'atiga salbiy ta'siri.
16. Ellinizm davrida Kolonna, pilyastralari, kapitel uslublarining qo'llanishi. Ayrитом ibodatxonasi
17. Mahalliy, ellin, sak-yuechji, gandxar (hind) madaniyati an'analarining qaror topishi va ularning o'zaro ta'siri

**"MARKAZIY OSIYO TASVIRIY SAN'ATI" FANI BO'YICHA  
SEMINAR MASHG'ULOTLARIGA MAVZULAR TAQSIMOTI**

№	Mavzular
1	Tasviriy san'atning taraqqiyot bosqichlari
2	Tasviriy san'atning paydo bo'lish sabablari. Tasviriy san'atning tur va janrlari
3	Markaziy Osiyo ning mezolit, neolit, eneolit va bronza davrlari tasviriy san'ati.
4	Ibtidoiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan tasvirlar
5	Gliptika san'ati. Bronza davri Sopolli, Jarqo'ton, Margun muxrlari
6	Sopol, yog'och, metall, shisha va tosh buyumlarida aks etgan tasvirlar
7	Ilk o'rta asrlar sopol naqshlari
8	Miniatyura san'ati
9	Markaziy Osiyoning antik davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlari va devoriy naqsh san'ati namunalarining o'r ganilishi
10	Markaziy Osiyoning antik davri devoriy naqsh san'ati kompozitsiyasi va tematikasi

- 11** Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar davri devoriy naqsh san’ati  
Makaziy Osiyoninng IX- XIII asrlar me’morchilik san’ati.
- 12** Markaziy Osiyoning XIV -XIX asrlar me’morchiligidagi  
qo‘llanilgan tasviriy san’at
- 13** Markaziy Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar davri me’moriy yodgorliklarida aks etgan tasviriy san’at
- 14** Markaziy Osiyoning Arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi  
va uning devoriy naqsh san’atiga salbiy ta’siri.
- 15**

### **Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta’lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha fan boblari va mavzularni o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslublaridan foydalanadigan o‘quv mashg‘ulotlari.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Tasviriy san’atning turlari, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san’ati
2. Markaziy Osiyoning mezolit va neolit davri ornamenti
3. Ornament turlari (Tabiat ko‘rinishini va hayvonot dunyosini ifodalovchi ornmantlar).
4. Epigrafik va geometrik ko‘rinishdagi ornament
5. Eneolit davrida sopol idishlarning rangdor bo‘lishi, naqshlar ichida ko‘proq egri va uchburchak geometrik tasvirlarning mavjudligi.
6. Animizm bilan bog‘liq bo‘lgan ornament va tasvirlar. Dualizm bilan bog‘liq bo‘lgan ornamentlar
7. Markaziy Osiyoda qadimdan yog‘och o‘ymakorligining rivojlanshi. YOg‘ochlarda aks etgan naqshlar.
8. Sirlangan idishlarda aks etgan tasvir va ornamentlar.
9. So‘ngi o‘rta asrlar me’moriy yodgorliklaridagi ornamentlar
10. XIV-XV asrlar me’moriy yodgorliklarda uchraydigan naqshlar.
11. Elenizm davri YUnion-Baqtriya va Parfiya xaykallari va koroplastika san’atining hususiyatlari
12. Xiva xonligida bunyod etilgan me’moriy yodgorliklardagi naqshlar va tasvirlarning nafisligi va o‘ziga xos xususiyatlari.
13. Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa (SHimoliy Baqtriya) va Dilberjin (Janubiy Baqtriya) rang-tasvir namunalarining o‘rganilishi.
14. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi naqshlarda Evropa naqshlarining ta’siri.
15. So‘nggi antik davri Marv devoriy rang-tasvirlari va ular kompozitsiyasi.

- 16.Islom davri me'morchiligidagi islimiy va geometrik naqsh san'atining rivojlanishi.
- 17.Me'morchilikda peshtoqli uslubning rivojlanishi va taraqqiyoti.

### **Dasturning informatsion - metodik ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. SHuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik - texnologiyalarning qo'yidagi:

- Aqliy xujum;
  - Klasterlarga bo'lish;
  - "Bumerang" texnologiyasi;
  - Muammoli o'quv texnologiyasi;
  - O'yinli o'qish texnologiyasi;
  - Informatsion va telekommunikatsion ta'lim texnologiyasi;
  - Inovatsion ta'lim texnologiyasi va boshqa metodlari qo'llaniladi.
- SHuningdek, slaydlar, multimedya namoyishlarini qo'llash ham nazarda tutiladi.

### **Фойдаланилган асосий дарслик ва адабиётлар.**

#### **Асосий адабиётлар:**

1. Караматов X. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. 2009 й.
2. Нифмонов Б.В., Эрматова А.Б. Нақши нигоралар. Методик-қўлланма. Т. 2010 й. Djvu.
3. Yu, Inchon. Jang Joon Hee. The Crossroads of civilizations: Ancient Culture of Uzbekistan. National Museum of Korea. 2010.
4. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. 1996.
5. Brent Brolin. Architectural Ornament: Banishment and Return. Norton, 2000.

#### **Кўшимча адабиётлар:**

1. Азимов И. Фарфона водийсининг архитектура ёдгорликлари. Т. 1986
2. Альбаум Л.И. Балалыкте. Т., 1960.
3. Альбаум Л.И. Живопис Афрасияба. Т. 1975
4. Аннаев Т. Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Т. 1997
5. Аршовская З.А. Ртвеладзе Э.В. Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. Т. 1982

6. Фуламов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. Т1959
7. Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средней Азии. М-Л.1939 pdf.  
Беленицкий А.М., Бентович И.Б. Большаков О.Г. Средневековые город  
Средней Азии. Л. 1973
8. Живопись древнего Пянджикента / Отв.редакторы А.Ю. Якубовский и  
М.М. Дьяконов. М. 1954
9. Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари.  
Т. 1979
- 10.Булатов С., Мансуров Ў. Миллий меъморчиликда амалий санъат  
фалсафаси. Т., 2005.
- 11.Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон воҳасининг суғорилиши  
тарихи.Т.1972
- 12.Настенная живопись Центральной Азии. Т. 2006.
- 13.Нозилов Д.А. Ўрта Осиё дизайнни тарихидан. Ўқув қўлланма.Т.,  
1998. pdf.
- 14.Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Ўқув  
қўлланма.Тошкент. Ўқитувчи -1997.
- 15.Пугаченкова Г.А. Архитектурные заметки “Искусство зодчих  
Узбекистана”.И.Т.1962
- 16.Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся архитектуры  
Узбекистана. Т., 1958
- 17.Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана. М.,  
1965
- 18.Пугаченкова Г.А., Ремпиль Л.И. История искусств Узбекистана с  
древнейших времен до середины XIX в. М., Т. 1936.
- 19.Пугаченкова Термиз, Шахрисабз, Хива. М., 1976
- 20.Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент . Узбекистана. Т., 1961.
- 21.Ремпель Л.И. Долёкое и близкое Бухарские записи. Т., 1981
- 22.Сухарева О.А. К Истории городов Бухарского ханство. Т.,1958
- 23.Сухарева О.А. Поздне феодальный город Бухара.Т.1962
- 24.Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Фан. Т. 1964
- 25.Шишкин В.А. Варахша. М. 1963.
- 26.Вахидов М.М., Мирзаев Ш.Р. Меъморчилик. 1-қисм. Меъморчилик  
тарихи. Дарслик. Т., “Тафаккур”. 2010. pdf.
- 27.Po'latov X., Miryusupov M., Tolipov A. va boshqalar. Arxitekturaviy  
kompozisiya assoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2003. pdf.
- 28.Franz Sales Meyer. Handbook of Ornament. Dover Publications, Inc., New  
York. 1957
- 29.Ornament as Art: Avant-Garde Jewelry from the Helen Williams Drutt  
Collection. Hardcover Bargain Price, 2007
30. The ornament of Histories. A history of Eastern Islamic lands AD 650-  
1041. The Persian text of Abu Said Abdal-Hayy Gardizi. Translated and  
edited by C.Edmund Bosworth. Published in 2011 by I.B.Tauris & Co ltd 6  
Salern Road, London W2 4BU.

- 31.Ornament as Art: Avant-Garde Jewelry from the Helen Williams Drutt Collection. Hardcover Bargain Price, 2007
32. Ardi Kia. Central Asian Cultures, Arts, and Architecture London SEE II Lexington Books. 2015
33. Gülru Necipoğlu & Alina Payne. Histories of Ornament: From Global to Local. Hardcover. 2016

**Интернет сайtlари:**

1. [www.history.ru](http://www.history.ru)
2. [www.natura.com](http://www.natura.com)
3. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
4. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)





